

**“ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR
SHAHRI” ASARIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI
HAQIDAGI TA’LIMOTLAR ”**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-bosqich kursanti

FAZLIDDINOVA FARIDA NASRIDDIN QIZI

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada mavzuning dolzarbligi va zarurati, huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ta’limotlar tushunchasi, mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish. Bundan tashqari huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ta’limotlardan keng ko‘lamli foydalanishni takomillashtirish. Ayniqsa bu borada Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridan foydalanishga katta ahamiyat berilgan. Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta’riflangan fozil odam xislatlaridan axolining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yanada oshirishda foydalanish.

ANNATATION: To study the relevance and necessity of the topic of the dissertation, the concept, essence, significance and specifics of the doctrine of crime prevention. In addition, to improve the widespread use of the doctrine of crime prevention. given. The use of the virtues of the noble man described in Abu Nasr al-Farabi's "City of Fazil Men" in further raising the legal awareness and legal culture of the population.

***Kalit so‘zlar.** Huquqbuzarlik profilaktikasi, Abu Nasr Farobiy, Fozil o‘smalar shahri asari, Ta’limot*

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ta’limotlarga huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan bog‘liq ilk g‘oya va qarashlardan tortib, bu boradagi turli tarixiy davrlarda ilgari surilgan fikrlar va qarashlar, shuningdek bugungi kunning zamonaviy ta’limotlarini kiritish mumkin.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi haqidagi ta’limotlar - ilk davlatlar paydo bo‘lgan vaqtdan to bugunga qadar yomon xulq, yomon odat,

insonlarga biror bir xatti-harakatni qilishni taqiqlovchi qoidalar, jamiyat tomonidan qoralangan boshqa holatlar haqidagi fikrlar, qarashlar va gʻoyalarning yigʻindisidir. Qadim qadimdan har bir davlatda jamiyat aʼzolarining oʻz mentalileti, turmush tarzi, urf-odati oʻzgacha boʻlib shulardan kelib chiqib turlicha gʻoyalar va qarashlar paydo boʻlgan. Koʻpincha huquqbuzarliklar profilaktikasi haqidagi taʼlimotlar zamonasining olim va faylasuflarining yozgan asarlarida namoyon boʻlgan.

Insonga ziynat bagʻishlaydigan fazilat – bu uning odob-axloqidir. Inson aql-tafakkuri, axloq-odobi bilan barcha mavjudotlardan yuqori turishi qadim zamonlardan hozirgacha hammani mulohaza yuritishga undaydi. Sharqning buyuk allomalari ham komil, maʼrifatli, yuksak axloqiy fazilatli inson haqida qimmatli fikrlar, durdona asarlar yozib qoldirganlar.

Demak, farzandga yoshlikdan berilgan toʻgʻri tarbiya, uning kelajakda yaxshi xulqli komil inson boʻlib yetishini taʼminlaydi va oʻz navbatida jamiyatga foyda keltiradi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish, tenglik, adolatparvarlik, insonparvarlik kabi gʻoyalarni tasavvuf, yaʼni soʻfiylik taʼlimotida ham uchratish mumkin. Tasavvuf ilmi Islom olamida VII asrning oʻrtalarida paydo boʻlgan. U dastlab Xalifa Usmon davrida zohidlik harakati sifatida amal qilgan boʻlsa, keyinchalik yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlarida rivojlanib, oʻzining yuqori choʻqqisiga chiqqan.

Farobiyning taʼlim- tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik gʻoyalari alohida oʻrin tutadi. Uning oʻqtirishicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa boʻla olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat jamoa boshligʻining vazifasi boʻlishi darkor¹.

Farobiyning taʼkidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi lozim. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni- bilimli boʻlishga, toʻgʻrilik va haqiqatni

sevishga, jasur, do'stlarga sadoqatli bo'lish singari fazilatlarni egallashga intilmog'i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lish uchun baxtsaodatga eltuvchi jamoa bo'lishi kerak.

Farobiy insonga xos hamda uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'limtarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi.

Farobiy insonni dunyo tarqqiyotining eng mukammal va etuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra u o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallashini qayd qiladi.

Ta'lim-tarbiya tabiat hodisalaridan foydalanish va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, jamiyatning ichki tartib qoidalarini to'g'ri o'rganib, uning talablariga javob bera oladigan insonni kamol toptirish zarurligini ta'kidlaydi.

Farobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham etuk mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi- jamiyat talablariga to'lato'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. "Ideal shahar aholi ilmining fikrlari" hamda "Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolalarida olimning bu fikrlari aniq ifodalangan².

Olimning o'qtirishicha kimki eng go'zal va foydali kashf etish fazilatiga ega bo'lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o'zining va boshqalarning istagiga muvofiq bo'lsa u xayrli va nafli bo'ladi.

Olim ta'lim faqat so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning

amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga o‘rganishdan iborat deb hisoblaydi.

Demak, Farobiy ta‘lim va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Tarbiya esa amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi, yoshlarga u ma‘lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakatodot, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Farobiy “Fozil shahar aholisning maslagi” risolasida jamiyat (“inson jamoasi”)ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi:

“Har bir inson tabiatan shunday tuzulganki, u yashar va oily darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘uladi...Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi³”.

Farobiy talqinicha, insoniyat jamiati turli xalqlardan tashkil topgan bo‘lib, ular bir-birlaridan tillari, urf-odatlarini, mamlakatlari, xususiyatlarini bilan farq qiladilar. Farobiy davlatning vazifasi baxt saodatga olib borishdir. Bu esa ilim va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi deb yozadi. Farobiy davlatlarni:

1. O‘z aholisini baxt-saodatga yetkazuvchi fozil davlat (Al-Madina al-fazila)larga.

2. boshqa xalqlarni bosib olib, ularni qul sifatida foydalanadigan, o‘z boyligini, farovonligi shu tarzda ta‘minlaydiga adolatsiz, johil davlatlar (Al-Madina al-johiliya)larga bo‘ladi.

Farobiy “Fozil jamiyat va fozil shaxarlar (davlat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har biro dam kasb-hunar bilan

shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar... Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi", deydi. Farobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podsho, rahbarlarga ham ma'lum talablar qo'yadi. U xal haqida doim g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan qo'ya bilishi zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida."Mutafakkir" xalqaro hayriya jamg'armasi.
2. Toshkent "Yozuvchi".2002 2. Мухитдинова.Ф.А.Фаробийнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги таълимоти. Рисола. —Т.: ТДЮИ, 2002
3. Фаробий "Фозил шаҳар аҳолиснинг маслағи" рисоласи
4. О' .Х.Мухамедов, А.С. Турсунов ва бoshqalar. О'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonuniga ilmiyamaliy sharh // B.A. Matlyubovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. –133 b.
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi islohotlar: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2018 yil 17 aprel). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 316 b.